

KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA ULARNING MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Tursunqulova Muxlisa Hayotovna

Guliston Davlat Universiteti

Menejment kafedrası o‘qtuvchisi

muxlisatursunqulova033@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining maqomi, tendensiyalari, statistik ko‘rsatkichlari va rivojlanish muammolari tahlil qilinadi. Jadvallar va ilmiy manbalar asosida MSP sektorining jamiyatdagi o‘rni, salmog‘i va xos muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, samarali rivojlanish uchun amaliyotda qo‘llaniladigan tavsiyalar taklif qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *MSP, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, O‘zbekiston, statistika, iqtisodiy rivojlanish*

Аннотация: *В данной статье анализируются состояние, тенденции, статистические показатели и проблемы развития сектора малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан. На основе таблиц и научных источников рассматриваются роль, значение и специфические проблемы сектора малого бизнеса и частного предпринимательства в обществе. Также предлагаются практические рекомендации по эффективному развитию.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, Узбекистан, статистика, экономическое развитие*

Abstract: *This article analyzes the status, trends, statistical indicators and development problems of the small business and private entrepreneurship sector in the Republic of Uzbekistan. Based on tables and scientific sources, the role, importance and specific problems of the MSP sector in society are considered. Also, practical recommendations for effective development are proposed.*

Keywords: *MSP, small business, private entrepreneurship, Uzbekistan, statistics, economic development*

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu toifadagi subyektlar yildan yilga o‘z mavqeini mustahkamlab borishi natijasida, mahalliy xom ashyo negizida eksportbop

yoki import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, iste'mol bozorini sifatli tovarlar bilan to'ldirish, aholini ish bilan band qilish, jamiyatga esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash vazifalari samarali amalga oshirilmoqda.

Har qanday mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, eng avvalo, ushbu sektorga nisbatan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning samaradorlik darajasiga bog'liq. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan majmuaviy tuzilma bo'lib, bunda tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish qonuniy asoslab qo'yilgan. Tadbirkorlar imtiyozli sur'atda kredit resurslari bilan moliyalashtirish va kichik korxonalar imtiyozli soliq to'lash imkoniyatlariga ega. Davlat tomonidan olib borilayotgan tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini takomillashtirish uchun kichik biznesning tadbirkorlik faolligini oshirish jarayonidagi muammolarni aniqlash, bu borada to'plangan xorijiy tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan aksariyat davlatlar qonunchiligida kichik biznes davlat tomonidan tartibga solinadigan maxsus subyekt sifatida belgilab qo'yilgan. Ularning iqtisodiy siyosati har qanday salohiyatdagi korxonalar uchun bir xilda qulay makro va mikro iqtisodiy muhit yara-tishga yo'naltirilgan. Biroq soliqqa tortish amaliyotida kichik va o'rta korxonalar alohida toifa sifatida ajratib ko'rsatiladi. Shu sababli soliqqa tortish jarayonida ular muhim jihat – kichik korxona deb tan olish mumkin bo'lgan mezonlar bo'yicha toifalanadi. Ko'p holatlarda bunday mezonlarning ikkita asosiy turi – sifat va son mezonlari ajratib ko'rsatiladi (1.1-jadval).

1.1-jadval

Xorijiy davlatlarda kichik va o'rta biznes miqdoriy
ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili*

Ko'rsatkichlar	AQSH	YEI davlatlari	Yaponiya	Rossiya
Korxonada band bo'lgan ishchilar sonining yuqori darajasi	Mikrofirma – 20 kishigacha	Mikrofirma – 10 kishigacha	Konchilik, qayta ishlash sanoati, qurilish – 300 kishigacha	Xorijiy korxona
	Kichik korxona – 21 dan 100 kishigacha	Kichik korxona – 11 dan 50 kishigacha	Ulgurji savdo – 100 kishigacha	Mikrofirma – 15 kishigacha
	O'rta korxona – 101 dan 500 kishigacha	O'rta korxona – 51 dan 250 kishigacha	Chakana savdo – 50 kishigacha	Kichik korxona – 100 kishigacha
				O'rta korxona – 101 dan 250 kishigacha

Tushum hajmi	3,5–14,5 mln. AQSHdoll.	427 mln. yevrogacha	–	Mikrofirma – 60 mln. rublgacha
				Kichik korxona – 400 mln. rublgacha
				O'rta korxona – 1000 mln. rublgacha

Bir qator mamlakatlarda, masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada korxonalarni kichik biznes subyektlari toifasiga kiritishda miqdoriy mezonlardan tashqari imtiyozli toifaga o'tkazuvchi maxsus sifat mezonlaridan ham foydalaniladi. AQSHda kichik biznesni tasniflash mezonlari ko'pincha tarmoqlarga bog'liq ravishda turli variantlarda bo'ladi. Masalan, har bir shtat uchun, faoliyat sohasi, mulkchilik shakli va moliyaviy ko'rsatkichlar borasida soliq rejimini optimallashtirishning o'ziga xos usullari mavjud.

AQSHda yollanma xodimlari soni (korxona egasi bilan birga) 25 kishida oshmagan korxona mikrofirmalar toifasiga kiritiladi. Kichik korxonalarda esa bu ko'rsatkich 25 kishidan 99 kishigachani tashkil etishi kerak. Ulgurji savdo korxonalarining yillik savdo aylanmasi 18,0 million dollargacha bo'lsa, ular ham kichik korxonalar hisoblanadi. Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasi, shu jumladan, transport xizmati ko'rsatishda ham mazkur ko'rsatkich 5,0 million dollar qilib belgilangan. AQSH qonunchiligiga ko'ra, kichik korxona boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardan mustaqil bo'lishi va faoliyat olib borishi, ammo o'z sohasida yetakchi bo'lmashligi kerak. 1953-yildayoq AQSHda mustaqil davlat agentligi sifatida Kichik biznes ma'muriyati (Small Business Administration, SBA) hamda uning mintaqaviy va mahalliy tuzilmalari tashkil etilgan edi. Hozir mamlakat shtatlarida uning 100 ta mintaqaviy bo'limi faoliyat olib boradi. SBA kichik tadbirkorlik manfaatlarini ko'zlagan 50 dan ortiq dasturlarni ishlab chiqqan va amalga oshirmoqda.

Keyingi vaqtda AQSHda, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik va kasanachilik jadal rivojlanmoqda. Nyu-Yorkdagi "Link re Sources" tadqiqot instituti ma'lumotlariga ko'ra, bu yerda 39,0 million kishi kasanachilik bilan to'la yoki qisman shug'ullanadi. Shu jumladan, 6,0 million kishi kasanachilikni asosiy mehnat faoliyati bilan qo'shib olib boradi. Shuni ta'kidlash kerakki, kichik biznesdagi ish tartibi 21,0 million amerikalikka (ish bilan jami bandlarning 17,0%i) to'liqsiz ish kunida mehnat qilish imkonini bermoqda.

Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqida faoliyat olib borayotgan, 20,0 mln.tadan ko'proq kichik biznes subyektlari 90,0 mln.ga yaqin odamni ish bilan ta'minlamoqda. Bu korxonalarining 99,8 % ida (ulardan 91,8 % i yollanma xodimlari soni 10 kishidan kam bo'lgan mikrofirmalar) 250 tagcha odam ish-laydi. Kichik biznesning bu subyektlari hisobiga jami ish joylarining 67,4%i to'g'ri keladi.

Jahon amaliyotini ko'rsatishicha, iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashda aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik va o'rta biznesning YAIMdagi ulushi Yevropa Ittifoqi davlatlarida – 68 %ni, Xitoy Xalq Respublikasi va Braziliyada 60 %ni, aholi bandligidagi ulushi esa Misr Arab Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasida – 80, Yaponiyada – 78, Yevropa Ittifoqi davlatlarida 72 % ni tashkil etmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda va qo'llab-quvvatlash amaliyotini rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda boyitish hamda ijobiy samara bera-digan usullarni mentalitet xususiyatidan kelib chiqib amaliyotga joriy etish lozim. Har har bir davlat uchun jiddiy muammo bo'lib kelgan, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash masalasi bugungi kunda, ayniqsa, keskin tus olyapti. Iqtisodiy siyosatda mehnat bozorining egiluvchanligini yanada takomillashtirish, tadbirkorlarga ish haqi darajasini belgilashda kengroq erkinlik berish, fiskal, pul-kredit siyosati va hokazolar yangi ish joylari yaratish borasidagi ahvolni tubdan o'zgartirish imkonini bermadi. Faqat kichik biznesni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish mehnat bozoridagi ishchi kuchi taklifi bilan unga talabni birmuncha mutanosib qilib turibdi. Buni Amerika Qo'shma Shtatlari misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bu mamlakatda har yili yaratilayotgan har to'rt yangi ish o'rnidan uchitasi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Bugungi kunda AQSHda 25,0 mln. kichik firma ro'yxatga olingan. Har yili ularning soni 1,0 mln. taga ko'paymoqda. Mamlakatda yollanma xodimlar soni 20 kishidan kam bo'lgan 6,0 mln. ta firma mavjud. Bundan tashqari 18,3 mln. ta xususiy noqishloq xo'jalik korxonalari faoliyat olib bormoqda

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi keyingi 30-yil ichida deyarli 70 foizga yetgan[9]. Jumladan, bu ko'rsatkich AQSHda 38 foizdan 52 foizga, Yaponiyada 47 foizdan 55 foizga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida umumiy holda 58 foizdan 67 foizga yetgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining ushbu mamlakatlardagi korxonalar umumiy sonidagi ulushi esa 92,5 foizdan past emas. XX asrning so'nggi 20-yili ichida kichik biznesdagi bandlik AQSHdagi ish bilan bandlar umumiy sonining 47 foizidan 54 foiziga, Yaponiyada 73,8 foizidan 78 foiziga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 48 foizdan 72 foizga qadar o'sgan. MDH davlatlarida kichik biznesning YAIMdagi ulushi rivojlangan mamlakatlardagi bu ko'rsatkichga nisbatan ancha past, jumladan, Rossiyada 20-21 foizga, Ukrainada 16,7 foizga teng

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonuni. 1990-yil 30-oktyabr. / www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 2012-yil 2-may. / www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-sonli farmoni. / www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF—4947-sonli farmoni. 1-ilova. // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda. / www.lex.uz
5. Аширбаев Э.А. Статистический анализ состояния развития малого бизнеса в Республике Узбекистан. // "Экономика и современный менеджмент: теория, методология, практика. Сборник статей X Международной научно-практической конференции, состоявшейся 5 декабря 2020 года". Пенза-МЦНС "Наука и просвещение" - 2020. 210-212 бетлар.